

QO'QON XONI MUHAMMADALIXON DAVRIDA SAVDO MUNOSABATLARI

Ashurov Olimjon

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7220911>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammadalixonning ichki va tashqi savdosi xususan Xitoy, Xindiston, Afg'oniston, Buxoro, kabi mamlakatlar bilan olib brogan savdo sotiq munosabatlarini yoritishga xarakat qildim.

Kalit so'zlar. Savdo-sotiq,manba,botmon,g'oz,

O'zbekiston tarixi chuqur ildizlar
va boy madaniy o'tmishga ega.

Malumki Umarxon vafotidan so'ng Qo'qon xonligi taxtiga Umarxonning o'g'li Muhammadalixon g'oz taxtga o'tiradi. Madalixon o'zining xukumronligi 1822-1842-yillar mobaynida tashqi siyosiy aloqalar va diplomatik munosabatlar va shu bilan birga savdo sotiqqa katta etibor berdi. Asosan ichki bozorda dexqonchilik, xunarmandchilik, zargarlik va ipak, yarim ipak, ip, matolar, sotilgan. Bunga misol tariqasida 1826-1827-yillarda qurilgan. Xonlikdagi yirik savdo markazlaridan biri. Avliyo ota qalsini ko'rishimiz mumkin dastlab ushbu qalada xarbiylar yashagan bo'lsa keyinchalik ushbu yerga chorvachilik bilan shug'illanuvchi savdogarlar xam ko'chib kelib joylasha boshlagan tarixiy manbalarda yozilishicha 1837-yilda qalada Namanganlik qo'y savdosi bilan shug'illanuvchi axoli yashash punkiti Namangan ko'chasi mavjud bo'lgan. Keyinchalik Avliyo ota kengayib O'rta Osiyoning yirik savdo markazi Qozoq bozori faoliyat yurgizgan. Shu bilan birga xonlik tashqi davlatlar asosan Afg'oniston, Buxoro, Xindiston Xitoy, Arab va Rossiya kabi mamlakatlar bilan savdo-sotiq olib borgan. Muhammadalixon davrida xonlik savdogarlari Buxoro Amirliги orqali Afg'onistonning quyidagi shaxarlarida Maymana, Saripul, Axcha Qobul, Hirot va Andxoy kabi shaxarlardan xonlikka Afg'on qilichi xanjari to'n va tulki, qo'y terili mo'ynalar olib kelib sotilgan. Xonlikdan Afg'onistonga ipak va ipak maxsulotlari olib borib sotilgan. Xonlikning tarkibiga kiruvchi Qorategin bekligi orqali xonlik savdogarlari Shimoliy Xindistonga ipak va ipak maxsulotlari va shu bilan birga quritilgan mevalar olib borilgan Xindistondan xonlikka oq mato keltirilgan asosan ushbu mato turidan bosh kiyim salla tayyorlangan. O'zaro nizolarga qaramasdan Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida elchilik aloqalar savdo sotiq munosabatlar to'xtab qolgani yo'q bunga misol 1826-yilda Istambulbiy boshchiligida elchilik munosabatlarini va 1830-yillardagi malumotlarga ko'ra Buxoro amirligi savdogarlarining qo'qon xonligi bozorlarida 1 botmon (botmon arabcha so'z bo'lib olg'irlik o'lchov birligi bir botmon 8 pudga teng) .guruchni 32 34 tangadan sotganini ko'rishimiz mumkin. Qo'qon- Xitoy o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlarga qaramasdan savdo munosabatlar rivojlanishda davom etgan. Bunga misol Qo'qonlik savdogarlar Qoshg'ar xududiga Rus temiri, qizil charm, rangli mato, movud, Rigada ishlangan duxobalar, oynalar, shu bilan birga oltin va simob olib borilgan. Qoshg'ardan Qo'qonga esa gilam, nashtali, kigiz va choy attorlik, maxsulotlari olib kelingan. Bu davrda qo'qon Qo'qon -Rossiya savdo

munosabatlari ancha rivojlangan bo'lib xonlik savdogarlari Rossiyadan Rigada ishlangan duxoibalar, chit ,oynalalar,olib kelib Qoshg'ar va buxoro bozorlarida sotishgan Qo'qondan Rosiyaga paxta ipakmaxsulotlari eksport qilingan. Y. Qosimovning malumotiga ko'ra. 1833- yilda xonlikdan Rossiya bozorlariga 1888445 rubllik tovarlar chiqarilgan.

Xulosa qilib aytganda Muhammadalixon davrida ichki va tashqi savda bir muncha rivoj topdi bunga misol tariqasida.Qo'qondagi 6 ta karvonsaroylarni ko'rishimiz mumkin. Ushbu bozorlarda xaftada 3 kun yakshanba,chorshanba, payshanba, kunlari bozor bo'lgan va shuni xam takidlashimiz kerakki. Ushbu karvonsaroylarda asosan Tibbet, Rossiya,Xindiston, Xitoy , Turkiya va Arab davlatlaridan kelgan savdogarlari kelib savdo qilgani xam savdo sotiqqa katta etibor berilganiga dalil bo'ladi. Tarixda xech narsa isiz ketmaydi u xalqlar onggi va qalbida abadiy qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikromjon Quziqulov. Qo'qon xonligi tarixi. Namangan, 2014.
2. R.Shamsiddinov. O'zbekiston Tarixi. 2-kitobi. Toshkent.
3. A.S.Sagdullayev. O'zbekiston Tarixi. 1-kitob. Toshkent, 2019.
4. Qo'qon xonligida savdo munosabatlari. Qo'qon xonligida savdo munosabatlari tarixi. Toshkent, 2014.
5. Haydarbek bobobekov. Qo'qon tarixi. Toshkent, 1996.